



GAVHARSHODBEGIMNING TEMURIYLAR SALTANATIDA TUTGAN

O'RNINI VA HIROT MADANIY HAYOTIGA TA'SIRI

THE ROLE OF GAVHARSHODBEGIM IN THE TIMURID EMPIRE AND HER INFLUENCE ON THE CULTURAL LIFE OF HERAT

Axmedov Sanjar Bektemirovich

Perfect universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Tel.: +99890-955-18-19

E-mail: axmedov.s@perfectuniversity.uz

orcid id: 0000-0001-7910-0765

Baubekova Kundizay

Oriental universiteti Tarix yo'nalishi

1-kurs magistranti

Tel.: +99895 035-26-89

E-mail: kundizaybaubekova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada temuriy malika Gavharshodbegimning Temuriylar saltanatidagi siyosiy o'rnini va Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Hirotning madaniy hayotiga ko'rsatgan ta'siri tarixiy-manbaviy asosda tahlil etiladi. Tadqiqotda malikaning nasabiy maqomi, Shohrux Mirzo bilan siyosiy hamkorligi, Bog'i Safed qasri va Gavharshodbegim madrasasi kabi bunyodkorlik faoliyati hamda ilm-fan va san'at ahliga ko'rsatgan homiylik jihatlari yoritiladi. Shuningdek, Gavharshodbegim haqidagi "hokimiyatparastlik" ruhidagi tasvirlar qiyosiy va tanqidiy yondashuv asosida qayta



ko'rib chiqilib, uning siyosiy faolligi sulola ichki barqarorligi va davlat manfaatlarini bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Maqola xulosalarida Temuriylar davri tajribasi, xususan, Gavharshodbegim timsolida ayol shaxsining siyosiy, madaniy va ma'rifiy jarayonlardagi faol ishtiroki jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *Gavharshodbegim, Shohrux Mirzo, Temuriylar saltanati, Hirot, Xuroson, Bog'i Safed, madrasalar, bunyodkorlik, ma'rifatparvarlik, ayol arboblari.*

Abstract. This article examines, on the basis of historical sources, the political role of the Timurid princess Gavharshodbegim within the Timurid Sultanate and her influence on the cultural life of Herat during the reign of Shahrukh Mirza. The study analyses her genealogical status, her political cooperation with Shahrukh Mirza, her building activities — including the construction of the Boghi Safed palace and the madrasa bearing her name — as well as her patronage of scholars and artists. Furthermore, source-based portrayals of Gavharshodbegim as “power-seeking” are reconsidered through a comparative and critical approach; her political activism is interpreted in the context of dynastic stability and the interests of the state. The article concludes that, as demonstrated by the experience of the Timurid period and the example of Gavharshodbegim in particular, the active participation of women in political, cultural, and educational processes constitutes an important factor in societal development.

Keywords: Gavharshodbegim, Shahrukh Mirza, Timurid state, Herat, Khurasan, Boghi Safed, madrasas, construction activity, enlightenment, women leaders.



«РОЛЬ ГАВХАРШОДБЕГИМ В ГОСУДАРСТВЕ ТИМУРИДОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КУЛЬТУРНУЮ ЖИЗНЬ ГЕРАТА»

Аннотация. В статье на источниковедческой основе анализируется политическое место темуридской правительницы Гавхаршодбегим в Темуридском султанате и её влияние на культурную жизнь Герата в период правления Шахрух-мирзы. В исследовании рассматриваются её родовой статус, политическое сотрудничество с Шахрух-мирзой, строительная деятельность (такие объекты, как дворец Боги-Сафед и медресе Гавхаршодбегим), а также её покровительство деятелям науки и искусства. Кроме того, “властолюбивый” образ Гавхаршодбегим, встречающийся в ряде источников, подвергается сравнительному и критическому анализу; её политическая активность трактуется в контексте сохранения династической стабильности и государственных интересов. В выводах статьи на основе опыта эпохи Темуридов, в частности на примере Гавхаршодбегим, обосновывается, что активное участие женщин в политических, культурных и просветительских процессах является важным фактором общественного развития.

Ключевые слова: Гавхаршодбегим, Шахрух-мирза, государство Темуридов, Герат, Хуросан, Боги-Сафед, медресе, строительная деятельность, просветительство, женщины-деятели.

Kirish. O'rta asr Sharqining yirik siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo'lgan Temuriylar saltanati, xususan, Shohrux Mirzo hukmronligi davridagi Hirot shahri nafaqat siyosiy boshqaruv markazi, balki ilm-fan, san'at va madaniyat chorrahasi sifatida ham



tarixga kirgan. Mazkur davr odatda Ikkinchi Renessans jarayonining muhim bosqichi sifatida talqin etilib, ko'proq erkak hukmdorlar, sarkardalar va olimlar faoliyati bilan bog'lab o'rganib kelingan. Biroq zamonaviy tarixshunoslikda davlat va jamiyat hayotida ayollar, xususan, saroy malikalarining o'rni va ta'sirini alohida ilmiy muammo sifatida tadqiq etish zarurati tobora kuchayib bormoqda.

Gavharshodbegim shaxsi ana shunday qayta ilmiy baholashni talab qiladigan tarixiy obrazlardan biridir. Ba'zi yozma va og'zaki manbalarda u hokimiyatga intilgan, taxtdan voz kechmagan malika sifatida biryoqlama, hatto salbiy ohangda tasvirlansa, manbalar majmuini qiyosiy va tanqidiy tahlil etish aksincha, uning siyosiy mas'uliyatni zimmasiga olgan, saltanat barqarorligi va madaniy taraqqiyoti yo'lida faol harakat qilgan arbob sifatidagi qiyofasini ko'proq namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan Gavharshodbegim faoliyatini Temuriylar davri siyosiy-madaniy jarayonlarining keng kontekstida o'rganish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Maqolaning dolzarbligi, avvalo, Temuriylar davrini o'rganishda ayol arboblarning rolini yetarlicha yoritilmagan jihat sifatida qayta ko'rib chiqish zarurati bilan belgilanadi. An'anaviy tarixiy tadqiqotlarda Gavharshodbegim ko'proq Shohrux Mirzoning turmush o'rtog'i yoki Ulug'bek Mirzoning onasi sifatida tilga olinadi, biroq uning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki, bunyodkorlik va ma'rifatparvarlik faoliyati, Hirot madaniy muhitining shakllanishiga ko'rsatgan bevosita ta'siri kamroq tahlil etilgan. Mazkur maqola ana shu bo'shliqni ma'lum darajada to'ldirishga qaratilgan bo'lib, malikaning siyosiy subyekt sifatidagi o'rnini aniqlashtirishga intiladi.



Tadqiqotning maqsadi — temuriy malika Gavharshodbegimning Temuriylar saltanatidagi siyosiy oʻrni va Hirot madaniy hayotiga koʻrsatgan taʼsirini yozma manbalar hamda tarixshunoslikdagi mavjud qarashlar asosida tahlil qilishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: Gavharshodbegimning nasabiy maqomi va genealogik oʻrnini aniqlash; uning Shohrux Mirzo bilan siyosiy hamkorligining mazmunini ochib berish; Bogʻi Safed qasri va Gavharshodbegim madrasasi kabi bunyodkorlik tashabbuslari orqali Hirotning madaniy muhitidagi oʻrnini yoritish; malika faoliyati haqidagi turlicha baholarni (ijobiy va salbiy talqinlarni) qiyosiy tahlil qilish; shu asosda ayol arboblarning Temuriylar davridagi siyosiy va madaniy jarayonlardagi rolini ilmiy jihatdan asoslash.

Adabiyotlar tahlili. Gavharshodbegim haqidagi ilmiy tadqiqotlar asosan ikki yoʻnalishga jamlangan:

Temuriylar sulolasida siyosiy taʼsir va sulolaviy raqobatlar doirasida “saroy siyosatchisi” sifatidagi oʻrni;

Hirot–Mashhad makonida meʼmoriy-vaqfiy homiylik orqali diniy-maʼrifiy infratuzilma yaratgan “muassasa qurgan” shaxs sifatidagi faoliyati.

Encyclopaedia Iranica maqolalarida uning nasab-qarindoshlik tarmoqlari, Shohrux davridagi saroydagi mavqei hamda vorislik inqirozlarida (xususan, 1447-yildan keyin) tutgan roli manbalarga tayangan holda qisqa, ammo faktlarga boy tarzda yoritiladi.

Gavharshodbegim shaxsiyati va faoliyatiga oid ilmiy izlanishlar bir qator tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, T. Fayziyev, A. Ahmedov, B. Ahmedovlarning asarlarida temuriy malikalar, jumladan, Gavharshodbegimning siyosiy



va madaniy hayotdagi o'rni yoritib berilgan. Ayniqsa, T. Fayziyevning “Temuriy malikalar” asarida Gavharshodbegim haqidagi ma'lumotlar nisbatan mukammal jamlangan bo'lib, unda malikaning siyosiy faoliyati, homiylik tashabbuslari va Hirot madaniy muhitiga ko'rsatgan ta'siri alohida tahlil etiladi.

Monografik izlanishlarda Beatrice Forbes Manz Gavharshodbegimni badiiylashtirmasdan, Temuriylar davlat mexanizmida amirlar guruhi, nikoh siyosati, legitimatsiya va vorislik masalalari bilan bog'liq real siyosiy munosabatlar tizimida talqin qiladi. Me'morchilik va san'atshunoslik tadqiqotlarida esa uning homiyligi Qavomiddin Sheroziy faoliyati, koshin-bezak, epigrafika va kompozitsion yechimlar orqali tahlil qilinadi (Golombek–Wilber; O'Kane). So'nggi yondashuvlar (jumladan, gender tarixshunosligi) Gavharshodbegimni Temuriy ayollar homiyligi an'anasi kontekstida ko'rib, diniy inshootlar orqali jamoat makoni va saroy ichidagi muvozanatga ta'sirini urg'ulaydi (Arbabzadah). Arxeologik-merosshunoslik izlanishlari esa Hirotidagi “Musallo” majmuasining tarixiy topografiyasi va tiklash muammolarini yangi dalillar bilan qayta ko'rib chiqmoqda. Umuman, adabiyotlarda uni afsonaviy ideal obrazdan ko'ra, vorislik siyosati va vaqf-homiylik orqali shaharning diniy-madaniy hayotiga ta'sir qilgan institutsional aktor sifatida talqin qilish ustun.

Metodologiya. Maqolada qo'llanilgan metodlar qatoriga tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, tarixiy-tipologik va tahlil-sintez usullari kiradi. Natijalar Gavharshodbegim shaxsini faqat saroy malikasi emas, balki muayyan darajada siyosiy subyekt, bunyodkor va ma'rifatparvar arbob sifatida ko'rsatishga, shuningdek,



Temuriylar davrida ayol shaxsining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini qayta baholashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Ba'zi yozma va og'zaki tarixiy manbalarda Gavharshodbegim shaxsi biryoqlama, ayrim hollarda salbiy ohangda tasvirlanganini kuzatish mumkin. Biroq manbalar majmuini qiyosiy va tanqidiy tahlil etish, Temuriylar davri siyosiy-madaniy jarayonlarini kengroq kontekstda ko'rib chiqish Gavharshodbegim faoliyati va shaxsiyatini baholashda ijobiy jihatlar ancha ustun ekanini ko'rsatadi. Shu bois ushbu maqolada temuriy malika Gavharshodbegimning Temuriylar saltanatidagi o'rni hamda Hirot madaniy hayotiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Ma'lumki, O'zbekiston tarixida Temuriylar davri o'ziga xos yuksalish bosqichi sifatida alohida o'rin egallaydi. Bu davrga doir masalalar bugungi kunda ham mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan izchil o'rganilmoqda. Aynan Temuriylar hukmronligi davrida Xuroson siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan sezilarli darajada ravnaq topdi, Ikkinchi Renessans deb ataluvchi uyg'onish jarayonining uzviy davomi sifatida shakllandi. Mo'g'ullar istilosi oqibatida vayron bo'lgan ko'plab shahar va me'moriy obidalar qayta barpo etildi, markaziy hokimiyat nufuzi va davlat sarhadlari kengaydi. Temuriylar saltanatida erkak hukmdorlar bilan bir qatorda ayrim malikalar ham davlatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga faol aralashib, muhim ta'sir ko'rsatgan. Ana shunday yetuk arbob malikalar sirasiga Gavharshodbegimni kiritish mumkin.

Gavharshodbegim shaxsiyati murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u ko'plab jihatlari bilan boshqa temuriy malikalaridan ajralib turadi. Avvalo, u o'z zamondosh malikalariga nisbatan ancha uzoq umr ko'rgan va hayotining so'nggi davrlariga qadar davlat



boshqaruvi va siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan. Gavharshodbegimning alohida e'tiborli jihatlaridan biri shuki, u siyosiy maydonda eng faol bo'lgan va o'z irodasini o'tkaza olgan temuriy malikalar qatorida turadi. Hatto "Bibixonim" yoki "Katta malika" nomlari bilan e'zozlangan qaynonasi Saroymulkxonim ham siyosiy jarayonlarda bu darajada faol rol o'ynamagan. Saroymulkxonim asosan xayriya ishlariga homiylik qilish, haram tartib-intizomini ta'minlash va shahzodalar tarbiyasini nazorat qilish kabi vazifalar bilan cheklangan bo'lsa, Gavharshodbegim bevosita davlat ishlariga, saroy siyosati va viloyat boshqaruvi masalalariga ham aralashgan.

Gavharshodbegimning nasabiy maqomi ham Temuriylar sulolasi tarixida muhim o'rin tutadi. U salkam uch qit'a hududini o'z ichiga olgan saltanat bunyodkori Amir Temurning kenja kelini, taxt vorisi sifatida otasidan so'ng hokimiyatni barqaror saqlab qolgan Shohrux Mirzoning turmush o'rtog'i edi. Shu bilan birga, u ilm-fan va falakiyot sohasidagi kashfiyotlari bilan jahonga tanilgan Ulug'bek Mirzoning onasi bo'lishi bilan ham alohida faxr bilan tilga olinadi. Shu ma'noda Gavharshodbegim nafaqat yuqori nasab va saroy mavqeiga, balki ilm-ma'rifatga e'tibori, bunyodkorlik faoliyati va siyosiy irodasi bilan ham Temuriylar tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Unda boshqaruvchanlik qobiliyati, zukkolik, bunyodkorlik va qat'iyatlilik kabi fazilatlar mujassam bo'lib, aynan shu sifatlar uni tarix sahifalarida alohida nom bilan muhrlanishiga sabab bo'lgan.

Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Gavharshodbegim 1379-yilda tug'ilgan va 1393-yilda Shohrux Mirzo nikohiga kirgan. U uch o'g'il va ikki qiz farzand ko'rgan: to'ng'ich o'g'li — Ulug'bek Mirzo Ko'ragon (Muhammad Tarag'ay, 1394–1449),



o'rtancha o'g'li — Boysung'ur Mirzo (1397–1433), kichik o'g'li esa — Muhammad Joki Mirzo (1401–1445) hisoblanadi (Fayziyev T., 2019: 48).

Ushbu genealogik ma'lumotlar Gavharshodbegimning Temuriylar sulolasi ichki siyosiy hayotida va merosxo'rlik tizimida tutgan o'rnini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Chunki uning kelib chiqishi, nasabiy mavqei va farzandlari orqali Temuriylar saroyidagi ta'sir doirasi, siyosiy ittifoqlar va vorislik munosabatlarini izchil kuzatish mumkin bo'ladi.

Manbalarda ta'kidlanishicha, Gavharshodbegim ajdodlari Chingizxon davridan beri nufuzli beklardan bo'lib, u tarxon unvoniga ega bo'lgan harbiy-zodagonlar sulolasidan chiqqan G'iyosiddin Tarxonning qizi edi. Ma'lumki, "tarxon"lar o'rta asrlarda maxsus imtiyozlarga ega bo'lgan harbiy-siyosiy tabaqa vakillaridan sanalib, ularga soliq va jazolardan ozod etilish, ayrim hollarda "to'qqiz aybgacha kechirilishi" kabi alohida huquqlar berilgan. G'iyosiddin Tarxon Amir Temurning eng yaqin safdoshlari va ishonchli amirlaridan biri bo'lib, sarkardaning dastlabki harbiy yurishlarida faol qatnashgan, muhim strategik topshiriqlar unga ishonib topshirilgan. Uning o'g'illari ham keyinchalik Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Temuriylar davlatiga sodiq xizmat qilganliklari haqida ma'lumotlar uchraydi. Shu bois Gavharshodbegim nafaqat amaldagi hukmdor xonadoniga kelin sifatida, balki qadimdan nufuzli va imtiyozli zodagonlar sulolasi vakilasi sifatida ham saroy ijtimoiy-piramidasida yuqori mavqega ega bo'lgan.

Amir Temur vafotidan so'ng temuriyzodalar o'rtasida taxt uchun kurashlar, mintaqaviy raqobat va siyosiy parokandalik kuchaygan bir sharoitda Shohrux Mirzo hokimiyat jilovini qo'lga olib, saltanat yaxlitligini saqlab qolishga erisha oldi. Temuriylar



davlatining yana qariyb ikki asr davomida mavjud bo'lishi uchun zarur siyosiy-huquqiy va ma'muriy zamin aynan shu davrda shakllandi. Tadqiqotchilar ushbu jarayonlarda Shohrux Mirzoning donishmandligi va murosaga moyil siyosati bilan bir qatorda, uning turmush o'rtog'i — tajribali va tadbirkor malika Gavharshodbegimning maslahatlari, homiylik va vositachilik faoliyati ham muhim omil bo'lganini ta'kidlashadi.

Manbalarda Shohrux Mirzoning umr bo'yi shar'iy nikohdagi xotinlari uch nafar bo'lgani qayd etiladi. Ularning ismlari Oq Sulton Og'a, Malikat Og'a va Gavharshodbegimdir. Shohrux Mirzo shaxsiga doir tasvirlarda ayrim hukmdorlarda uchraydigan kanizaklarga haddan tashqari ruju qo'yish, aysh-ishratga berilish kabi xususiyatlarning kuchli namoyon bo'lmagani, uning ko'proq davlat ishlari, ma'muriy islohotlar va diniy-ma'rifiy masalalarga e'tibor qaratgani alohida ta'kidlanadi. Oq Sulton Og'aga oid tarixiy ma'lumotlar deyarli saqlanib qolmagan, u farzand ko'rgan yoki ko'rmaganligi borasida ham aniq dalillar yo'q. Malikat Og'a esa marhum Umarshayx Mirzoning bevasi bo'lib, eri vafotidan so'ng Amir Temur irodasi bilan Shohrux Mirzoga nikohlangan. U Shohrux Mirzodan Suyurg'amish ismli o'g'il ko'rgan. Manbalarda Shohrux Mirzo va Malikat Og'a o'rtasidagi oilaviy munosabatlar haqida ko'p tafsilot uchramasa-da, ayrim rivoyatlarda u Shohruxdan yoshi katta bo'lgani qayd etiladi.

Gavharshodbegim esa Shohrux Mirzo haramidagi eng nufuzli va suyukli bosh malika sifatida tilga olinadi. Uning siyosiy mavqeini, saroydagi ta'sir doirasini va Shohrux Mirzoning unga bo'lgan alohida e'tiborini bir qator faktlar, jumladan, malika nomiga qurilgan madrasa va boshqa bunyodkorlik namunalari yaqqol ko'rsatadi. Adabiy manbalarda ham bu holat badiiy talqin etilgan. Xususan, Primqul Qodirov "Shohruh va



Gavharshod” asarida Shohrux Mirzoning Gavharshodbegimga atab Hirotning nufuzli hududida oq marmardan uch qavatli qasr qurdirgani, uni atroflicha bog‘-rog‘lar bilan o‘rashga buyurgani tasvirlanadi. Muallif oq marmar qasr, sarv va sanobar daraxtlari, “Oydinbog” yoki “Bog‘i Safed” nomi bilan mashhur bo‘lgan bu maskanni badiiy bo‘yoqlar bilan tasvirlar ekan, aslida temuriy hukmdor va malikalar homiyligida Hirotga vujudga kelgan yangi me‘moriy-madaniy muhitga ham ishora qiladi.

Shu tariqa, Shohrux Mirzo xotinlari, xususan Gavharshodbegim atrofidagi genealogik va ijtimoiy-ma‘naviy manzarani tahlil qilish Temuriylar saroyidagi kuchlar muvozanatini, oilaviy va siyosiy ittifoqlar rolini hamda Hirot madaniy hayotining shakllanishida malika shaxsining tutgan o‘rnini chuqurroq anglash imkonini beradi (Ravshanov P., 2021: 656).

1418-yilda bunyod etilgan Bog‘i Safed qasridan so‘ng, 1432-yilda Gavharshodbegim nomi bilan atalgan yirik madrasa qurilishi ham amalga oshirilgan bo‘lib, bu inshoot malikaning Hirot shahridagi bunyodkorlik va ma‘rifiy faoliyatining mantiqiy davomi sifatida baholanadi. Ushbu madrasa shahzodalar hamda iste‘dodli yoshlar uchun ilm olish maskani sifatida xizmat qilgan, bu yerda diniy-ilmiy fanlar bilan bir qatorda adabiyot va she‘riyat anjumanlari ham muntazam tashkil etib borilgan. Manbalarda ta‘kidlanishicha, madrasa zaminida o‘tkazilgan she‘riyat majlislarida malikaning o‘zi ham faol ishtirok etgan, shoir va olimlarga in‘om va mukofotlar berib, ularni ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan.

Gavharshodbegimning mazkur madrasa faoliyatiga bevosita rahbarlik qilgani ham uning boshqaruv salohiyatini ko‘rsatadi. Xususan, madrasa mudarrislari uchun maosh



belgilash, uni muntazam tarqatish, moddiy ta'minot masalalarini nazorat qilish kabi ma'muriy- tashkiliy ishlarga malikaning shaxsan o'zi aralashgani qayd etiladi. Bu holat Gavharshodbegimning nafaqat ramziy-homiylik, balki amaliy boshqaruv darajasida ham ilm-ma'rifat sohasini qo'llab-quvvatlaganini ko'rsatadi. Umuman olganda, Gavharshodbegim Hirotida amalga oshirilgan ko'plab bunyodkorlik ishlariga rahnamolik qilgan, Temuriy shahzodalar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan va ularning siyosiy-ma'naviy kamolotida muhim rol o'ynagan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Gavharshodbegim saroyning ichki hayoti bilangina cheklanib qolmagan, balki shahzodalar va saroy harbiy qo'mondonlari faoliyatini ham ma'lum darajada nazorat ostida ushlab turgan. Hokimlar va sarkardalarni tayinlash, ularning faoliyatini baholash va zarur hollarda jazolash masalalarida malikaning fikri va roziligi katta ahamiyat kasb etgan. Taniqli tarixchi Poyon Ravshanning "Amir Temur sulolasi" asarida bu borada shunday xulosaga kelinadi: Gavharshodbegim (Gavharshod Og'a) Shohrux Mirzo saltanatining boshidan to oxirigacha o'z mavqeini saqlab qolgan, davlat miqyosidagi masalalarga aralashgan va ularni o'z irodasiga muvofiq hal eta olgan malika sifatida tasvirlanadi; zarurat tug'ilganda hatto vazirlar ham uning huzuriga murojaat qilishga majbur bo'lgan.

Mazkur ma'lumotlar Gavharshodbegimni Temuriylar davri siyosiy tizimida faqatgina "saroy malikasi" emas, balki muayyan darajada siyosiy subyekt sifatida ham ko'rish imkonini beradi. Uning bunyodkorlik, ma'rifatparvarlik va boshqaruvdagi faolligi Hirotning XV asrdagi madaniy-ma'naviy muhitini shakllantirishda, Temuriylar



davlatining siyosiy barqarorligini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lganini ko'rsatadi (Qodirov P., 2009: 256).

Ayrim tarixiy manbalarda Gavharshodbegim hokimiyatga intilgan, hatto keksalik chog'ida ham Xuroson taxtidan voz kechmagan shaxs sifatida tasvirlanadi. Biroq bu kabi mulohazalarni baholashda manbalarni tanqidiy ruhda ko'rib chiqish, ularning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan siyosiy, ijtimoiy va sulolaviy omillarni chuqur tahlil etish zarur. Tarixiy jarayonlar, odatda, shaxsning "shaxsiy hokimiyatga hirs qo'yishi" bilangina emas, balki murakkab siyosiy muvozanatlar, barqarorlikni saqlab qolish zarurati va sulola ichidagi raqobat bilan ham bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda, Gavharshodbegim haqidagi "hokimiyatparastlik" ruhidagi baholarni ham aynan o'sha davr siyosiy konteksti bilan birgalikda o'rganish lozim.

Gavharshodbegimning siyosiy maydonga faol chiqishi va amalda hukmdor darajasidagi mavqega erishishi tasodifiy emas edi. Uning faoliyatini Shohrux Mirzo davridagi umumiy siyosiy muhit bilan bog'liq holda tahlil qilish ilmiy jihatdan to'g'riroq bo'ladi. Chunki Shohrux Mirzoning davlat boshqaruvi uslubi Sohibqiron Amir Temur siyosiy tajribasidan ma'lum darajada farqlanadi.

Amir Temur nafaqat harbiy iste'dodi, balki siyosiy qat'iyati, markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash borasidagi keskin qarorlari bilan ham ajralib turgan yirik davlat arbobi edi. U davlat boshqaruvini to'la o'z nazoratiga olgan, saroy ayollari va haram a'zolarining siyosatga aralashuviga imkon bermagan. Shohrux Mirzo esa otasiga nisbatan yumshoq tabiatli, ilm-ma'rifatga moyil, diniy e'tiqodga sodiq sifatida tasvirlanadi; u ko'p hollarda diniy masalalar va ma'rifiy ishlarni davlat ishlaridan ustun



qo'yg'an, bu esa ayrim vaziyatlarda siyosiy qat'iyatning yetishmasligiga olib kelgan bo'lishi mumkin.

Aynan shunday sharoitda Gavharshodbegimning siyosiy faolligining ortishi tabiiy hol sifatida baholanishi mumkin. U, avvalo, oilaviy va davlat barqarorligini ta'minlash, Temuriylar saltanatida ichki parokandalikning oldini olish maqsadida siyosiy jarayonlarga faol aralashgan. Demak, ayrim tarixchilarning ta'kidlashicha, uning faolligini "hokimiyatga hirs" emas, balki sulola va davlatning siyosiy barqarorligini saqlashga qaratilgan ongli sa'y-harakatlar sifatida talqin etish ma'qulroqdir. Shohrux Mirzoning yumshoqligi, dindorligi va ehtiyotkor tabiatiga qaramay, murakkab siyosiy masalalarda qat'iy qaror qabul qilish zarur bo'lgan pallalarda Gavharshodbegim ko'pincha uning maslahatchisi va hamkor sifatida sahnaga chiqqan.

Gavharshodbegim uchun Hirot shahri alohida ma'naviy va siyosiy ahamiyatga ega edi. Shohrux Mirzo davrida Xuroson poytaxti maqomini olgan bu shahar temuriylarning siyosiy markazi, ilm-fan va madaniyat chorrahasi, malikaning esa umrining asosiy davri o'tgan maskani bo'lgan. Shu bois Gavharshodbegim Hirotning obodonchiligi, infratuzilmasi, suv ta'minoti va qishloq xo'jalik imkoniyatlarini qayta tiklash masalalariga ham befarq bo'lib qolmagan.

Ma'lumki, Chingizxon yurishlari davrida Murg'ob daryosi yo'nalishini buzdirish oqibatida qadimiy Marv shahri vayron bo'lgan, atrof hududlar xarobaga aylangan. Manbalarda, jumladan, adabiy talqinlarda (Primqul Qodirovning "Shohruh va Gavharshod" asarida) Murg'ob to'g'onini qayta tiklash tashabbusi aynan Gavharshodbegim nomi bilan bog'lanadi. Shohrux Mirzo dastlab butun bir shaharning



qayta qurilishi masalasida ikkilangan bo'lsa-da, malikaning qat'iy taklifi va qo'llab-quvvatlashi natijasida mazkur ulkan bunyodkorlik ishlarini boshlab yuborgan. Bu jarayonlarda Gavharshodbegimning o'zi ham faol rahbar sifatida ishtirok etgani ta'kidlanadi: Marv shahri qayta tiklanib, yerlar tekislanadi, bog'lar barpo etiladi, uy-joylar quriladi, aholi qayta joylashtiriladi va shahar yana obod maskanga aylanadi. Mazkur voqelik Gavharshodbegimning madaniy-ma'naviy hayot va hududiy obodonchilik sohasiga qo'shgan eng katta hissalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Shohrux Mirzo va Gavharshodbegim oilasi Temuriy sulolasidagi boshqa xonadonlarga qaraganda o'zaro mehr-oqibat, hamjihatlik va ma'naviy uyg'unlik bilan ajralib turgani manbalarda alohida qayd etiladi. Ularning har ikkisi ham ilm va bunyodkorlikka mehr qo'ygan, ilm-fan ahliga homiylik qilgan shaxslardir. Shu ruh farzandlar tarbiyasida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Manbalarda Shohrux Mirzo va Gavharshodbegimning o'g'illari o'rtasida taxt uchun keskin ichki kurashlar kuzatilmagani, ularning o'zaro munosabatlari nisbatan barqaror bo'lgani ko'rsatiladi. Bu hol, tabiiyki, avvalo, oilaviy tarbiyaning sog'lom bo'lishi, onaning oqilona va ma'rifatli munosabati bilan izohlanadi.

Katta o'g'li Mirzo Ulug'bek Samarqandda hokimlik qilgan, bir vaqtning o'zida rasadxona faoliyatini boshqarib, buyuk olimlar bilan birga astronomik tadqiqotlar olib borgan. Ikkinchi o'g'li Boysung'ur Mirzo Hirotda yirik lavozimlarni egallab, san'at, xattotlik, adabiyot va ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan. Kenja o'g'li Muhammad Joki Mirzo esa Balxda hokimlik qilib, mintaqaning siyosiy boshqaruvida faol ishtirok etgan. Ularning barchasida ilmga muhabbat, bunyodkorlikka moyillik, nisbatan muvozanatli



siyosiy xulq-atvor shakllangan bo'lsa, bunda ularning oqila va ma'rifatli onasi — Gavharshodbegimning ta'siri beqiyos ekani shubhasiz.

O'z davrida Gavharshodbegim “Mahdi ulyo” (oliy martabali malika) unvoni bilan tilga olingan va nafaqat Hirotda, balki Samarqand ahli o'rtasida ham katta hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan. Manbalarda u Samarqandga borib, o'g'li Ulug'bek Mirzoni ziyorat qilgan paytlarda shahar aholisining unga bo'lgan samimiy muhabbati va ehtiromi alohida qayd etiladi. Bu hol malikaning nufuzi faqat saroy doirasida emas, balki keng ijtimoiy qatlamlar orasida ham yuqori bo'lganidan dalolat beradi.

Valiahd masalasi Gavharshodbegimning siyosiy tafakkuri va uzoqni ko'ra bilish qobiliyatini yaqqol namoyon etadigan jihatlardan biridir. Ma'lumki, Shohrux Mirzo valiahd sifatida o'g'li Muhammad Joki Mirzoni ko'proq ma'qul ko'rgan, Gavharshodbegim esa bu masalada nabirasi Alouddavlani qo'llab-quvvatlagan. Gavharshodbegimning Alouddavlani valiahd sifatida ko'rish istagi tasodifiy emas edi; u sulola ichidagi shaxsiy fazilatlar, siyosiy salohiyat va kelajakdagi muvozanatni hisobga olgan holda qaror bildirgan oqila ayol sifatida namoyon bo'ladi. Bu hol, umumiy ma'noda, malikaning siyosiy masalalarda mustaqil fikr yurita olganini, hokimiyat masalasini shaxsiy manfaat emas, balki davlat va sulola istiqboli nuqtayi nazaridan baholaganini ko'rsatadi.

Har qanday davrda ayol shaxsining siyosiy-iqtisodiy yoki madaniy jarayonlarga aralashuvi turli natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa, avvalo, uning bilim saviyasi, aql-zakovati va ma'naviy fazilatlarini bilan bog'liq. Buni Temuriylar tarixida bir-biriga zid ikki obraz misolida ham ko'rish mumkin. Manbalarda Shodimulk ilmiy-



ma'naviy salohiyati past, hasadgo'y, mol-dunyo va hashamatga ruju qo'ygan ayol sifatida tasvirlanadi; uning bunday xatti-harakatlari saltanatni tanazzul yoqasiga olib kelgan omillardan biri sifatida tilga olinadi. Gavharshodbegim esa, aksincha, yuksak nasab, ilm-ma'rifat va oqilona qarorlar bilan bog'langan obraz bo'lib, u davlat barqarorligini saqlashga, Shohrux Mirzoga davlat ishlarida aql-zakovat bilan yordam berishga intilgan.

Amir Temurning nikoh siyosati ham bu yerda diqqatga sazovor. U siyosiy mavqeini mustahkamlash, Chingiziy meros bilan sulolaviy aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida Chingizxon avlodidan bo'lgan Saroymulxonimga uylangan. Bu nikoh amaliyoti Sohibqironning davlatchilik an'alarida nasab va sulolaviy bog'liqliklarga katta e'tibor berganidan dalolat beradi. Shuningdek, u o'g'illarini uylantirishda ham kelin tanlashda nasab, siyosiy ittifoqlar va diplomatik manfaatlarni inobatga olgan. Ayrim tarixchilarning fikricha, Amir Temur Gavharshodbegimga boshqa kelinlari — Xonzoda begim va Malikat Og'alarga qaraganda nisbatan kamroq e'tibor bergan bo'lishi mumkin; bu hol, ehtimol, Gavharshodbegimning xonlar avlodiga mansub bo'lmagani bilan izohlanadi. Biroq shunga qaramay, Gavharshodbegimning shaxsiy fazilatlari, siyosiy zakovati va oqilona qarorlari tufayli uning Temuriylar davlatidagi mavqei juda yuqori bo'lgan va u amalda sulola siyosatida muhim rol o'ynagan.

Gavharshodbegim hayoti faqat bunyodkorlik, ilm-ma'rifat va siyosiy muvaffaqiyatlar bilan emas, balki og'ir fojealar bilan ham yo'g'rilgan. U dunyoga keltirgan farzandlari va ayrim nabiralarning vafotiga guvoh bo'lgan, bu esa uning shaxsiy hayotida katta ruhiy zarba bo'lib, malikaning qaddi-qomatini bukib qo'ygan. Biroq hayot sinovlari buning bilan tugamagan. Abu Sa'id Mirzo Samarqandni



egallaganidan so'ng Hirot taxtiga ham da'vogarlik qildi. U Hirotga kelgan paytda Shohrux Mirzoning bevasi bo'lgan Gavharshodbegim hali ham mamlakatda katta obro'-e'tiborga ega edi. Bu hol Abu Sa'id Mirzoda ehtiyotkorlik va shubhani kuchaytirgan, uning atrofidagi ayrim amaldorlar esa bundan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinib, malika va nabirasi Sulton Ibrohim o'rtasida fitna va til biriktirish borasida soxta ayblovlar uyushtirganlar.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Abu Sa'id Mirzo bu tuhmatlarga ishonib, 80 yoshni qarshilagan, gavdasi munkaygan malika haqida "hiyonat va fitna" gumoniga tushadi va ehtimoliy xavf manbaini bartaraf etish maqsadida keskin qarorga keladi. Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn" asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, bir guruh fasodchi kishilar "Mahdi ulyo" — Gavharshodbegim ustidan uning Sulton Ibrohim bilan muntazam aloqa qilib turgani, lashkar ahvoli va boshqa xabarlarni yashirincha yetkazayotgani haqidagi tuhmatlarni "yuqori quloqlarga" yetkazishgan. Natijada hukmdor ramazon oyining to'qqizinchi kuni (1454-yil 31-iyul)da malika ustidan qatl hukmini ijro ettirishni buyurgan. Abdurazzoq Samarqandiy Gavharshodbegimni "o'z davrining Bilqisi, zamonasining Qaydofasi" deya ta'riflab, bunday ulug' martabali malikaning fitna va tuhmat qurboni bo'lib halok bo'lganini afsus bilan qayd etadi.

Shu tariqa, Gavharshodbegim hayoti va faoliyati Temuriylar saltanatidagi ayol shaxslari o'rnini baholashda, siyosiy barqarorlik, sulola ichki munosabatlari va madaniy taraqqiyotda ayol arboblarning roli qanday namoyon bo'lishini ko'rsatuvchi muhim tarixiy misol sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi (Samarqandiy A., 2008: 832).



Amir Temur vafotidan so'ng boshlangan siyosiy parokandalik sharoitida Temuriylar saltanatining saqlanib qolishi, avvalo, Shohrux Mirzo va uning dono hamroh-maslahatchisi Gavharshodbegimning hamkorlikdagi faoliyati bilan bog'liq bo'ldi. Gavharshodbegim Shohrux Mirzoga tayanch sifatida davlat boshqaruvida ishtirok etib, ichki nizolarni yumshatish, markaziy hokimiyat mavqeini mustahkamlash va Xuroson hududlarida nisbiy barqarorlikni ta'minlashga sezilarli hissa qo'shdi. Biroq ularning vafotidan so'ng siyosiy merosni munosib darajada davom ettira oladigan kuchli arboblarning yetishmasligi, sulola ichidagi raqobat va tashqi omillar ta'siri natijasida Temuriylar davlati asta-sekin zaiflashib, nihoyat tarix sahnasidan chekindi. Shu ma'noda, Shohrux Mirzo va Gavharshodbegim faoliyati Temuriylar saltanatining so'nggi yirik siyosiy va madaniy yuksalish bosqichini ifodalovchi muhim tarixiy davr sifatida baholanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Hirot siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilib, keng va obod shaharga aylandi. Mamlakatda iqtisodiy jonlanish kuzatildi, ko'plab madrasa, masjid, shifoxona va xonaqohlar barpo etildi, ilm-fan ahli va ijodkorlar davlat homiyligi va e'tiborini his qildilar. Yoshlarning ta'lim olishi, ilmiy va ma'naviy kamolotini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, aholining kundalik hayotida nisbatan tinch-osoyishta muhit vujudga keldi.

Ushbu yuksalish va barqarorlik jarayonlarining muhim omillaridan biri, shubhasiz, Gavharshodbegim shaxsidir. U saroy hayotiga qamalib qolgan malika emas, balki siyosiy



mas'uliyatni zimmasiga olgan, bunyodkorlik va ma'rifatparvarlik tashabbuslari bilan ajralib turgan arbob sifatida Temuriylar davlati taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan. Hirotda madrasa va Bog'i Safed qasri kabi yirik me'moriy inshootlarning bunyod etilishi, Marv va boshqa hududlarning obodonlashtirilishi, ilm ahliga g'amxo'rlik ko'rsatilishi, shuningdek, shahzodalar tarbiyasi va siyosiy muvozanatni saqlash borasidagi sa'y-harakatlari Gavharshodbegimning davlat miqyosidagi xizmatlarini yaqqol namoyon etadi. Shu bois uning nomi asrlar osha ham hurmat va ehtirom bilan tilga olinishi bejiz emas.

Gavharshodbegim faoliyati misolida ko'rinadiki, har qanday davrda ham ayolning ilmi, farosatli va ma'rifatli bo'lishi nafaqat oila, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Ilmi ona keyingi avlodning ma'naviy va intellektual qiyofasini belgilab beradi, bu esa o'z navbatida millat va davlatning yuksalishiga zamin yaratadi. Temuriylar davri tajribasi, xususan, Gavharshodbegim timsolida ayol shaxsining siyosiy, madaniy va ma'rifiy jarayonlardagi faol ishtiroki jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi muhim omillardan biri ekanini ko'rsatadi.

Taklif:

temuriy malikalar va saroy ayollarining siyosiy qarorlar, vorislik masalalari va homiylik orqali ijtimoiy hayotga ta'sirini yoritishga qaratilgan turkum anjumanlar tashkil etish;

xotin-qizlar tarbiyasi va ijtimoiy faolligi bilan bog'liq bo'limlarda Gavharshodbegim misolini ilmiy asoslangan "tarixiy tajriba" sifatida berish;



mavzuni keng qamrovli tadqiq qilishga mo'ljallangan fundamental ilmiy ishlar sonini oshirish va tadqiqotchilarni jalb qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II Жилд. 1 қисм. 1405-1429 йил воқеалари // Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳли луғатлар муаллифи А. Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 632 б.
2. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II Жилд. 2-3 қисмлар. 1429-1470 йил воқеалари // Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳли луғатлар муаллифи А. Ўринбоев. Географик номлар ихохли кўрсаткичи О. Бўриев. Тарихий шахс, воқеа ва атамаларга изоҳ беришда Ғ. Каримов ва Э. Миркомиловлар иштирок этишган. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 832 б.
3. Akhmedov S. B. Analysis of Information on Local Embassy Relations in Abdurazzak Samarkandi's Work" Matlai Sadayn Wa Majmai Bahrain" //REVISTA geintec-gestao inovacao e tecnologias. – 2021. – Т. 11. – № 3. – P. 234-244. (DOAJ, CiteFactor) <http://revistageintec.net/wp-content/uploads/2022/02/1930.pdf>
4. Arbabzadah, Nushin. "Women and Religious Patronage in the Timurid Empire." In: Green, Nile (ed.). Afghanistan's Islam: From Conversion to the Taliban. Oakland: University of California Press, 2017. Pp. 56–70. DOI: 10.1525/9780520967373-007.
5. А. Крымский «История Персии, литературы и дервишеской теософии», т. III. М. 1914—1917, стр. 64.



6. Ахмедов С.Б., Бойматов Ҳ. “Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн” асаридаги айрим маълумотлар таҳлили // Шарқ машъали. – Тошкент, 2021. № 3. –Б. 133-138. (07.00.00. № 9).
7. Бартольд В. В. Культура мусулманства. Сочинения. Т. 5. –М. , 1966. –С. 196.
8. Бўриев О. Темурийлар дари ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 186 б. (116 б.)
9. Fayziyev. T. Temuriy malikalar. Risola / – Т.: “Ziyo nashr” nashriyoti, 2019. – 48-bet.
10. Franke, Ute; Mutin, Benjamin; Khairzade, Khair Mohammad. “The ‘Musalla’-Complex in Herat Revisited: Recent Archaeological Investigations at the Gawhar Shad Madrasa.” In: Studies on Archaeology in Honour of Karin Bartl.
11. Golombek, Lisa. “GOWHAR-ŠĀD MOSQUE.” Encyclopaedia Iranica, Vol. XI, Fasc. 2, pp. 181–184. Published December 15, 2002; Last Updated June 4, 2013.
12. Manz, Beatrice Forbes. “GOWHAR-ŠĀD ĀĠĀ.” Encyclopaedia Iranica, Vol. XI, Fasc. 2, pp. 180–181. Published December 15, 2002; Last Updated November 17, 2017.
13. Qodirov P. Shohruh va Gavharshod: “Ona lochin vidosi” romanining to‘ldirilgan yangi nashri “Tog‘larga tarmashgan” tarixiy roman / – Toshkent: “O‘zbekiston” 2009. – 256-bet.
14. Ravshanov. P. Amir Temur sulolasi: roman. / – Toshkent: Yangi asr avlodi 2021. – 656-bet.



15. М.Мамажонов. Абдураззоқ Самарқандийнинг Бойсунғур Мирзо ҳақида маълумотлари // Шарқшунослик. – Тошкент, 2002. – № 11. – Б. 37-38.

REFERENCES:

1. Abdurazzak Samarkandi. *Matla' sa'dayn wa majma' bahrayn* (Vol. II, Part 1: The events of 1405–1429). (Translated from Persian; foreword and glossary by A. O'rinboyev). Tashkent: O'zbekiston. 632 p.
2. Abdurazzak Samarkandi. *Matlai sa'dayn va majma'i bahrayn* (Vol. II, Parts 2–3: The events of 1429–1470). (Translated from Persian; foreword and glossary by A. O'rinboyev; index of geographical names by O. Bo'riev; annotations prepared with the participation of G'. Karimov and E. Mirkomilov). Tashkent: O'zbekiston. 832 p.
3. Beatrice Forbes Manz. (2002). GOWHAR-ŠĀD ĀĠĀ. In *Encyclopaedia Iranica*, Vol. XI, Fasc. 2, pp. 180–181. Published Dec 15, 2002; last updated Nov 17, 2017.
4. Krymskiy A. (1914–1917). *History of Persia, literature, and dervish theosophy* (Vol. III, p. 64). Moscow.
5. Lisa Golombek. (2002). GOWHAR-ŠĀD MOSQUE. In *Encyclopaedia Iranica*, Vol. XI, Fasc. 2, pp. 181–184. Published Dec 15, 2002; last updated Jun 4, 2013.
6. M. Mamajonova. (2002). *Abdurazzoq Samarkandiy's information on Boysung'ur Mirzo*. *Sharqshunoslik*, 11, 37–38.
7. Nushin Arbabzadah. (2017). *Women and religious patronage in the Timurid Empire*. In Nile Green (Ed.), *Afghanistan's Islam: From Conversion to the Taliban* (pp.



56–70). Oakland: University of California Press.

<https://doi.org/10.1525/9780520967373-007>

8. O. Bo'riev. (1996). Central Asia in Timurid-era written sources. Tashkent: Ўзбекистон. 186 p. (see p. 116).

9. P. Qodirov. (2009). Shahruxh and Gawharshad (expanded new edition of the novel “Ona lochin vidosi”; historical novel “Tog'larga tarmashgan”). Tashkent: “O'zbekiston”. 256 p.

10. P. Ravshanov. (2021). The Timurid dynasty (Novel). Tashkent: Yangi asr avlodi. 656 p.

11. S. B. Akhmedov, & H. Boymatov. (2021). Analysis of selected information in “Matlai Sadayn wa Majma'i Bahrain”. Sharq mash'ali, 3, 133–138.

12. S. B. Akhmedov. (2021). Analysis of information on local embassy relations in Abdurazzak Samarkandi's work “Matlai Sadayn Wa Majmai Bahrain”. REVISTA geintec-gestao inovacao e tecnologias, 11(3), 234–244.

13. T. Fayziyev. (2019). Timurid princesses (Risola). Tashkent: “Ziyo nashr”. p. 48.

14. Ute Franke, Benjamin Mutin, & Khair Mohammad Khairzade. (n.d.). The “Musalla”-Complex in Herat revisited: Recent archaeological investigations at the Gawhar Shad Madrasa. In Studies on Archaeology in Honour of Karin Bartl.

15. V. V. Bartol'd. (1966). The culture of Islam (In Collected works, Vol. 5, p. 196). Moscow.